



## UZUN TUMANIDA KO'ZI OJIZLAR UCHUN YANGI IMKONIYATLAR ESHIGI OCHILDI

**Qudratova Farzona**

Termiz davlat universiteti

1-kurs jurnalistika yonalishi

Uzun tumanida ko'zi ojizlar jamiyati uchun mo'ljallangan maxsus kutubxona ish boshlashi tuman hayotidagi muhim ijtimoiy voqealardan biri bo'ldi. Ushbu kutubxona ko'zi ojiz fuqarolarning bilim olish, mutolaa qilish hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Mazkur kutubxona ilk bor 2015-yilda tashkil etilgan bo'lib, 2025-yilda to'liq yangilanib, zamonaviy talablarga moslashtirildi. Loyiha Uzun tumanida uch marotaba ishlab chiqilib, bugungi kunda ko'zi ojizlar uchun qulay, shinam va barcha zarur sharoitlarga ega maskan barpo etildi. Ushbu ezgu tashabbusning amalga oshishida Nishonboy Go'ziyevning tashabbusi va fidoyiligi alohida e'tiborga loyiq. Ayni paytda u mazkur kutubxona mudiri sifatida faoliyat yuritmoqda.



**1-rasm. Kutubxona old ko'rinishi**

Kutubxonaning birinchi qavati keng va yorug' zal bo'lib, bu yerda turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, uchrashuvlar, seminarlar hamda taqdirlash marosimlari o'tkazilishi rejalashtirilgan. Ushbu zal ko'zi ojizlar jamiyati a'zolari uchun muhim ijtimoiy va madaniy



markazga aylangan. Ma'lum qilinishicha, kutubxonaning ikkinchi qavati ham yaqin bir oy ichida to'liq qurib bitkaziladi.

Mazkur kutubxona huzurida ikki muhim tashkilot faoliyat olib bormoqda. Jumladan, Ko'zi ojizlar jamiyati Uzun tuman bo'linmasi (O'ZKOJ) hamda Surxondaryo viloyati ko'zi ojizlar maxsus bo'linmasining Uzun tuman filiali ushbu maskanda joylashgan. Hozirgi kunda mazkur jamiyatlarda safida 179 nafar a'zo ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ular kutubxona xizmatlaridan muntazam foydalanib kelmoqda.



**2-rasm. Kutubxona ko'rinishi**

Kutubxona fondi ko'zi ojizlar ehtiyojlarini inobatga olgan holda shakllantirilgan. Bu yerda Brail tizimidagi relyef harflar bilan yozilgan maxsus kitoblar, audio kitoblar hamda yirik shriftlarda chop etilgan nashrlar mavjud. E'tiborlisi shundaki, ushbu kutubxona xizmatlaridan nafaqat ko'zi ojizlar, balki boshqa kitobxonlar ham foydalanishlari mumkin. Kutubxonaga a'zo bo'lish pasport orqali amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtda kutubxona fondida 2 mingta bosma kitob, 400 ta audio kitob hamda 400 ga yaqin bo'rtma, ya'ni relyefli kitoblar mavjud. Ushbu loyiha tuman miqyosida birinchi bor amalga oshirilgani bilan ahamiyatlidir. Mazkur kutubxona faqat Uzun tumani uchungina emas, balki boshqa tumanlardagi ko'zi ojizlar jamiyatlari uchun ham ochiq maskan hisoblanadi.

Mazkur xayrli ishni amalga oshirishda Uzun tumani hokimi Habibullo Bozorovning hissasi katta bo'lib, kutubxonani tashkil etish va rivojlantirish uchun 950 million so'm mablag' ajratildi. Bu esa davlat tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga bo'lgan e'tiborning yana bir yorqin namunasi bo'ldi.



Yangi kutubxona kitob o‘qishni sevuvchi ko‘zi ojizlar uchun chinakam ma’naviy maskan bo‘lib, ularning bilim olishi, o‘z ustida ishlashi va jamiyatga yanada yaqinlashishiga xizmat qilishi shubhasiz.